

KONSTITUTSIYA - ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Andijon davlat chet tillari instituti

Bahodirova Saodatoy

Ilmiy maslahatchi: Xomidova Malohat

Annotatsiya: Mustaqil davlat bo'lish uchun u yerda tartib-qoidalar bo'lishi kerak. Mana shunday qonunlar bo'lsa, tartib bo'ladi, tartib bo'lsa ta'lim ham bo'ladi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining kelib chiqishi, uning mazmuni, jamiyatdagi roli va fuqarolar hayotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ilk bor Konstitutsiyaning qabul qilinishi va bunda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning ahamiyati, yangi va eski tahrirdagi o'zaro farqlar haqida tushuntirib o'tilgan. Eng asosiysi, yoshlarga bo'lgan e'tibor va yoki konstitutsiyada aynan ta'limga oid ko'plab moddalar xalqning Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirishi ta'kidlangan.

“Haqiqiy erkinlik - qonunlar hamma uchun teng amal qilingandagina mavjud bo'ladi.”

Nelson Mandela

Kalit so'zlar: mustaqillik ramzi, Qadimgi Rim, demokratik davlat, yangi tahrirdagi konstitutsiya, yoshlar uchun sharoitlar, majburiy ta'lim, 50-modda, 20-modda, inson huquqlari, 11-sessiya, Islom Karimov, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Oliy Kengash.

Mustaqil davlatning ramzlaridan biri bo'lmish konstitutsiya - davlat farovonligida juda muhim ahamiyatga ega. Ya'ni mustaqil davlat bo'lib shakllanishida davlatning o'z qonun-qoidalari va tartiblari o'rnatilgan bo'ladi. Bu davlatni nafaqat oson, balki odillik bilan boshqarishida ko'maklashadi. Bundan tashqari konstitutsiya davlatning mohiyatini, tuzilishini, siyosatining asosiy tamoyillarini belgilaydi va fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi.

Konstitutsiya (lotincha, constitutio - “o’rnatish”, “belgilash”) - bu davlatning asosiy bosh qonunlari jamlanmasidir. Demokratik davlatchilikning asosiy belgisi hisoblanadi. “Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq bor edi, ya’ni imperator konstitutsiyasi deb atalgan. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha xalqaro talablarga javob bera oladigan tarzda ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasida Yangi tahrirdagi konstitutsiya qabul qilingan bo’lib, bu o’zgarish 2023-yilning 30-aprelidagi referendumdandan so’ng qabul qilinib, 1-maydan kuchga kirdi. Konstitutsiyaning moddalariga katta o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi. Ya’ni 65% yangilandi.

Yangilangan konstitutsiya mamlakat, millat va yagona xalq sifatida kelajakdagi rejarimizni aniqlab olish uchun g’oyat ahamiyatlidir. Adolatli kelajakni barpo etish yo’lidagi ulkan qadamdir.

Konstitutsiya - fuqarolarni huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi birdan-bir dalildir. Bunga ko’ra har bir davlat organi faqat aholining manfaatlarini ko’zlab faoliyat ko’rsatishiga asos bo’ladi. Eng muhimi shuki, qonundagi noaniqliklar ham inson foydasiga hal bo’lishi shart va zarur. Inson va davlat o’rtasidagi tushunmovchiliklar shundagina odillik bilan bartaraf etilishi mumkin.

Yoshlar masalalari konstitutsiyada. O’zbekiston yoshlarni har tomonlama yetuk bo’lishi uchun ko’plab shart-sharoitlar yaratgan. Oliy ta’limda esa talabalar uchun davlat grantlari, akademik erkinlik, o’zini-o’zi boshqarish, tadqiqotlar o’tkazish va o’qitish erkinligi huquqi berildi. Birinchi navbatda, bepul hamda 11 yillik majburiy ta’limda o’qish - bu yoshlarda ta’lim va tarbiyani shakllantirishning ilk bosqichidir.

Aynan bu qonun O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida keltirilgan: Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. (IX bob,50-modda)

Ta'lim sohasidan farqli ravishda, yoshlar bandligini ta'minlash, (kerak bo'lsa) uy-joy berish, sog'ligini saqlash va dam olish huquqlari bilan ta'minlaydi. Asosiysi, davlat va jamiyat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, yurtidan va xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish yo'llarini o'rgatadi. Bularning barchasi demokratik davlatda farovon hayotni barpo etishga asos bo'la oladi.

Inson huquqlari. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari doimo birinchi o'rinda turadi. Bunga misol qilib Konstitutsiyamizning 20-moddasiga nazar tashlasak:

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. (V bob, 20-modda)

Har kim yashash huquqiga ega bo'lganligi sababli O'zbekistonda o'lim jazosi ta'qiqlangan. Ya'ni, insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini singdiradi. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, hech bir fuqaro sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligini belgilaydi. Shaxsing erkinligini cheklash faqatgina sud qarori bilan amalga oshiriladi. Bunga ko'ra, insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqda saqlash qoralanadi. Inson erkin yashar ekan o'qiydi, izlanadi, ko'zlagan manziliga yetadi.

Agar, qonun ustuvorligi tamoyili bo'yicha ish yuritilmasa davlat ham, xalq ham parokandalikka uchrab, rivojlanishdan to'xtaydi. Eng asosiysi o'z mustaqilligini yoqotadi. Oqibatda boshqa davlatga qaram bo'lib qoladi. Aniqrog'i, tartib o'rnatilmagan davlat aholisini yo'qotishi va qo'shni davlatlar hech qiyinchiliksiz bo'ysundirib olishi mumkin.

1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun - 8-dekabr umumxalq bayrami - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e'lon qilindi.

ilmiy –amaliy anjuman

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. Ushbu sessiya prezident Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan vakillar, davlat hamda jamoat birlashmalari, korxonalar rahbarlari, huquqshunos olimlar va shu kabi mutaxassislar ishtirok etgan. Komissiya ishlab chiqqan matbuotda e'lon qilinib, keng muhokama etilgan. Konstitutsiyaviy komissiya muhokamani yakunlagandan so'ng loyihani tuzatib, ma'qullab Oliy Kengash sessiyada ko'rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama-modda muhokama etilgandan so'ng qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrirda) muqaddima, 6 bo'lim, 27 bob, 155 moddadan iborat. (Avvalgi tahrir - 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat edi).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://share.google/0rGVPd7HzRy8xMp63>
2. https://constitution.uz/oz/pages/mazmun_mohiyati
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasining_Konstitutsiyasi